

Каромиддин Айнилло ўғли ЖАМАҲМАТОВ

Самарқанд давлат университети

таянч докторанти,

Имом Термизий халқаро илмий-

тадқиқот маркази

манбаишунослик бўлими бошлиғи

e-mail: jamahmatovkaromiddin@mail.com

HOJI MUHAMMAD SHAHDIY IJODIDA TARIQAT AHLI TAVSIFI

DESCRIPTION OF FOLLOWERS OF TARIQA IN THE WORK OF HAJI MUHAMMAD SHAHDI

ОПИСАНИЕ ПОСЛЕДОВАТЕЛЕЙ ТАРИКАТА В РАБОТЕ ХАДЖИ МУХАММАДА ШАХДИ

Annotasiya. *Qo‘qon adabiy muhitida tarbiya topgan zullisonayn va orif shoir Hoji Muhammad Shahdiy adabiy merosida Xoja Bahouddin Naqshband va naqshbandiyya tariqatiga doir tarixiy va badiiy ahamiyatga xos ma‘lumotlar mavjud. Shahdiy she‘riyatida bu zotga bo‘lgan yuksak ixlosi ko‘plab manoqibnoma mazmunli she‘rlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek naqshbandiyya silsilasida bo‘lgan ustozlardan ta‘lim olganligi va ularni o‘z piri sifatida talqin etganligi Shahdiy tariqat ahli bo‘lganligini isbotlab beradi. Maqolada Hoji Muhammad Shahdiy devonida kelgan Xoja Bahouddin Naqshband hazratlariga bog‘liq manoqibnoma mazmunli she‘rlar tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Shoh Naqshband, tariqat, pir, murshid, zikr, qutb, valiy, sunnat, ibodat, muhabbat.*

Annotation. *The literary heritage of the great and learned poet Haji Muhammad Shahdi, who was brought up in the literary environment of Kokand, contains historical and artistic information about Khoja Bahauddin Naqshband and the Naqshbandi sect. In Shahdi’s poetry, his high devotion to this person is reflected in many meaningful poems. He also learned from the teachers in the Naqshbandi series and interpreted them as his piri, proving that he was a member of the Shahdi sect. The article examines the manaqibnama poems related to Hazrat Hoja Bahauddin Naqshband in the poems of Haji Muhammad Shahdi.*

Keywords: *Shah Naqshband, Tariqat, Pir, Murshid, Zikr, Qutb, Wali, Sunnah, Prayer, Love.*

Аннотация. *Литературное наследие великого и ученого поэта Хаджи Мухаммада Шахди, воспитанного в литературной среде Коканда, содержит исторические и художественные сведения о Ходже Бахауддине Накибанде и тарикате Накибандия. В поэзии Шахди его высокая преданность этому человеку отражена во многих значимых стихотворениях. Он также учился у учителей из серии Накибанди и интерпретировал их как свой наставник (пир), доказывая, что он был членом тариката Шахди. В статье исследуются стихотворения манакибнама, связанные с Хазратом Ходжей Бахауддином Накибандом в стихах Хаджи Мухаммада Шахди.*

Ключевые слова: *Шах Накибанд, тарикат, пир, мурид, зикр, кутб, вали, сунна, ибада (богослужение), любовь.*

KIRISH

Xoja Bahouddin Naqshband – Sharq olamida e’tirof etilgan zabardast olim, irfon ahli, naqshbandiyya tariqatining asoschisi va murshidi sanaladi. Bu vatandoshimiz hayoti ilmiy faoliyati butun tariqat ixlosmandlariga koni ibrat. O‘rta asrlarda chuqur ildiz otgan naqshbandiy sayrusuluki va hayotiy qarashlari butun dunyo musulmon xalqlari ichiga tarqalgan. Shu sababdan ko‘plab olimlar naqshbandiyya tariqati ta’sirida qimmatli asarlar yozganlar. Bu zot hayoti va ilmiy merosi yoshlar tarbiyasiga oid muhim manba sanaladi. Hoji Muhammad Shahdiyning Bahouddin Naqshband hazratlariga bag‘ishlangan she‘rlari aksari o‘zining u kishiga bo‘lgan muhabbatidan darak beradi. Sunnatga muvofiq tarzda Naqshband hazratlari hurmati ila Allohdan najot so‘ragan. Shahdiy munajat va manoqiblaridagi vasila tariqat ahli namoyandalarga xos bo‘lgan vasila sanaladi. Shoir aytgan g‘azallarida Xoja Bahouddin Naqshbandning madhi, tavsifi va go‘zal axloqi namoyon bo‘lgan. Xoja Muhammad Porso “Risolai qudsiya” asarida ustoz Bahouddin Naqshband manoqibiga bag‘ishlab yozadi: “U kishining so‘zlarini sabr bilan tinglasa qalb tasfiyasi (poklashi) vujudga keladi, uni fahsh va axloqqa zid bo‘lgan mashg‘ulotlardan qaytaradi, zohiriy tafakkurdan botiniy tafakkurga undaydi shu bilan birga haqiqatlar jamolini ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi” [8: 11].

ASOSIY QISM

Hoji Muhammad Shahdiy adabiy merosi islomiy qarashlar bilan boy. Shahdiy gʻazallarida naqshbandiya tariqatining gʻoyaviy taʼsiri koʻplab gʻazallarida namoyon boʻladi. Jumladan Xoja Bahouddin Naqshband va naqshbandiyar vazifa qilgan “virdlar” shoir sheʼrlarida radif sifatida koʻp istifoda etilgan. “Astagʻfirulloh”, “Alhamdu lillah”, “Laa ilaha illalloh”, “Yo Ilohiy anta Robbiy yo Gʻofur”, “Alloh-Alloh” [9:275-79] va boshqa zikrlar koʻplab gʻazallarida takror keladi. U “Shohi Naqshband”, “Pir”, “Tariqat peshvosi” [9:111] kabi unvonlar bilan tilga oladi. Quyida “Naqshband” radifli gʻazali shoirning bu valiy zotga boʻlgan ixlosi va muhabbati namoyon boʻladi. Sharq shoirlari asarlarida pir, murshid, orif, valiy, solik, murid, solih, sohibdil, darvesh, gado, soqiy, hodi, faqir va qutb soʻzlariga tez-tez duch kelamiz. Va aksar bu soʻzlarda shoir ijtimoiy hayoti bilan bogʻliq hodisalar aks ettiriladi. Masalan, Shahdiy ijodidagi pir, murshid, solik, soqiy, hodii rohi nur, qulfkushoi darho va murid soʻzlari oʻzining real hayotiga daxldor ifodalar sanaladi. Bu soʻzlar bilan shoir Abdulqodir Giloniy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Muso, Xoja Ubaydullohi Solik va boshqa tariqat peshvolarini zikr etgan.

Ey fayzbaxshu murshid, ey oshiqi ilohi,
Sohibi kamolu aʼzam, yo shoh Naqshband...
[9:111]

Mazmuni: Ey fayz ulashuvchi va Allohning oshiqi boʻlgan murshid! Ey shoh Naqshband sen kamol ahlining ulugʻvorisan.

Shahdiy sheʼriyatining matniiy tarkibida irfon ahli va tariqat ahli pirlariga boʻlgan muhabbat bot-bot takrorlanadi. Lirik qahramon Xoja Bahouddin Naqshband timsolida ilohiy ishqga muhtalo boʻlgan oshiq, irfon ahli bilimdoni, shijoatli murshid, maʼnaviy pirni va duosi ijobat boʻladigan orifni koʻradi. “Bahouddin Balogardon”, “Shoh Naqshband”, “Shahboz”, “Yo pir” va “Madad beruvchi” leksik birikmalari bilan, u kishining tariqatdagi maqomini bayon etadi. Sheʼrlardagi undalma va ritorik xitob koʻproq munajatnoma mazmunini olgan.

Tariqat ahli boʻlgan koʻplab shoiru ulamolarda sukr va sahv holatlari uchrab turadi. Mansuri Halloj umrining soʻnggi damlarida sukr holatida boʻlganligini olimlar taʼkilashadi. Sukr va mastlik bir-biriga maʼnodosh soʻzlardir. Ammo tasavvuf

istilohiga kelsak, sukr – ilohiy muhabbatdan bexudlik va maʼnaviy mastlikdir. Mastlik – koʻngilning ishq gʻalabasidan bexudligi, fano filloh holati [5:49]. Shahdiy sheʼrlaridagi maʼno koʻlami ilohiy maʼrifat va ilohiy muhabbat bilan aloqador. Chuqurroq qaraganda, soʻfiylarning shatahot holatiga oʻxshaydi. Ramz, kinoya va istioralar bilan oʻz zavqiga xos boʻlgan dil izhorini bayon etadi. Sheʼrlaridagi shatahot – harakat va toʻlib-toshishlarning asl sababi sukr va mastlikda aytganligidadir. “Shatahot Soʻfiyning ogʻzidan oddiy holatda emas, balki jazb va qattiq taʼsirlanish oqibatida chiqadi. Zikr ila Alloh taologa yetishib qolgan soʻfiy oʻzini yoʻqotib qoʻyib, nima deyayotganini bilmay qoladi” [11:232].

Hoji Muhammad Shahdiy Bahouddin Naqshband qabrini ziyorat qilish uchun Samarqand shahriga boradi. Maqbaraga borganida vajd va hayajon ila surush sanʼatiga xos quyidagi gʻazalni insho qiladi:

Boz omadam bar oston, yo hazrati shoh, yo madad,

Kun az qatori on sagon, yo hazrati shoh yo madad.

...Rahme bikun moro bubin, bar Shahdii zoru hazin,

Umed dorem inchunin yo hazrati shoh, yo madad [9:111-112].

Mazmuni: Ey hazrati shoh Naqshband, huzuringga keldim, meni muridlaring qatoridan joy ber. Muhabbat va sadoqat koʻrsatishda pahlavonlarning shohisan. Hidoyat maqomida murshidsan. Bu Shahdiy zoru hazindir, holiga boq va rahm qil. Ey shoh Naqshband, ey piri komil, ey tariqat ahli peshvosi, ey shohi jahon va ustozi komil menga yoʻl koʻrastasan deb umid qilaman.

Sheʼrdagi takroriy radif “yo hazrati shoh, yo madad” hissiy ohangdorlikni kuchaytirib, gʻazalga joziba baxsh etgan. Shahdiy adabiy merosida, “pirim” “shoh” va “sag-i koʻyat” (ostonangdagi it) kabi iboralar gʻazallarida koʻp uchraydi. Buni tasavvufda “vasila” deyiladi. U kishi Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarini vasila qilib, Alloh taolodan najot soʻragan. Bu kabi vasila qilish tariqat ahliga xos boʻlgan. Ular valiy zotlar hurmati bilan Alloh taolo duolarini ijobat qilishiga sidqi dildan ishongan. Ahli sunna ulamolari oʻz asarlarida vasila qilishning joiz ekaniga oyat va hadislardan qator dalillarni keltirishgan. Jumladan, Alloh taolo

Qur'oni karimda mo'min insonlarni vasila qilishga amr qilib shunday deydi: **“Ey, imon keltirganlar! Allohdan qo'rqingiz va Unga vasila (vosita) izlangiz”** [Moida surasi, 35-oyat]. Ushbu oyatda Alloh taolo insonlarga O'ziga vasila izlashlarini buyurmoqda. Tafsiir kitoblarida vasilani Allohning ism va sifatleri, yaxshi amallar, payg'ambarlar va solih bandalar hurmati ila qilishni joiz deyiladi.

Usmon ibn Hanif (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Bir ko'zi ojiz kishi Payg'ambar (s.a.v.)ning huzurlariga kelib: “Allohga duo qiling, menga shifo bersin”, dedi. “Xohlasang duo qilaman. Xohlasang sabr qil. Bu sen uchun yaxshidir”, – dedilar”. “Duo qiling”, – dedi. Uni yaxshilab tahorat qilishga va ushbu duoni o'qishga amr qildilar: “Allohim! Albatta, men Muhammad – rahmat Payg'ambari ila Sendan so'rayman va Senga yuzlanaman. Ey Muhammad! Albatta, ushbu hojatim ravo bo'lishi uchun Robbinga sizni vasila qilib yuzlandim. Allohim! U Zotning men haqidagi shafosatini qabul qil”. Shundan so'ng uning ko'zi ochilgan holda qaytib ketdi (Imom Termiziy va Imom Ibn Moja rivoyatlari). Ushbu rivoyatda Rasululloh (s.a.v.) ko'zi ojiz insonga duo qilayotganda Payg'ambarni vasila qilib so'rashni o'rgatdilar. Shunga binoan, insonlar duolarida Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni o'rtaga qo'yib hojatlari so'rashlari mana shu hadisga muvofiq bo'ladi.

Manbalarda sahobalarning ham vasila qilganlari keltiriladi. Bu borada Hazrati Umarning qurg'oqchilik vaqtida qilgan quyidagi vasilalari juda mashhurdir. Anas raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Umar ibn Xattob roziyallohu anhu qurg'oqchilik vaqtida Abbos ibn Abdulmuttalib ila Allohdan suv so'rab quyidagicha duo qilar edi: “Ey Allohim! Biz Senga Payg'ambarimiz ila vasila qilar edik va Sen bizni suv bilan serob qilar eding. Endi biz Senga Payg'ambarimiz amakisini vasila qilamiz. Bizni suv bilan serob qilgin”. Natijada ular suv bilan serob qilinadilar (Imom Buxoriy rivoyatlari). Ahli sunnaning to'rt mazhab ulamolari tomonidan vasila qilishning joiz ekanligi, uning turlari hamda mumkin bo'lmagan tavassul masalasini keng yoritib berganlar.

Bir qator hanafiy, molikiy, shofiiy va hanbaliy olimlar bu borada asarlar yozgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, vasila qiluvchi inson duosida haqiqiy yaratuvchi, duolarni ijobat qiluvchi Zot faqat Alloh taolo ekaniga e'tiqod qilishi lozim.

Shar'an joiz bo'lgan vasiyla “Ey Allohim! Men Sendan falon yaxshi amalim yoki falon insonning sening huzuringdagi hurmati ila so'rayman” shaklida bo'ladi. Aksincha, qabrlarni ziyorat qilish chog'ida ba'zi ilmsiz insonlarning qabrlarga to'g'ridan-to'g'ri sajda qilishlari, “Ey falonchi menga farzand ber!” yoki “Ey falonchi meni hojatimni chiqar!”, – deb so'rashlari islom dini shariatiga mutlaqo zid amal hisoblanadi. Shuning uchun ham musulmon kishi qabr ziyorati hamda ulug'larni vasila qilishni shariatga muvofiq amalga oshirmog'i lozim bo'ladi [<https://hidoyat.uz/>].

Tariqat ahli shoirlari “ishq” shiori ostida Allohning muhabbati, pirining xizmati va ma'naviy jasoratini bayon etgan. Shahdiyning barcha she'rlarida shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat g'oyalari yaqqol sezilib turadi. Jumladan naqshbandiya tariqatining pirlariga sadoqati o'zgacha bo'lgan.

Ey keshi haqiqat, ey hodii tariqat,

Ey rahbari shariat, fayzi sahar muborak. [9:181]

Mazmuni: Ey haqiqat sohibi, ey tariqat rahnamosi, ey shariat rahbari, erta tongning fayzi muborak.

Sodda va ravon ifodalar bilan yo'g'rilgan baytlarda shoir qalbidagi muhabbat ifori zuhurlangan. Binobarin, ushbu she'rlardan kelib chiqib, shoir ijodini xalqona, orifona, “rindona va so'fiyona desak to'g'ri bo'ladi” [7:94]. Belinskiy ta'kidlaganidek, “Xalqchilik chinakam badiiy asarning zarur shartidir. Har qanday xalqning hayoti faqat uning o'ziga xos shakllarida namoyon bo'ladi, binobarin, hayot tasviri haqqoniy bo'lsa, u xalqchil hamdir” [1:250]. Shoir adabiy merosi ana shu xislat bilan imtiyozlidir. Chunki uning merosidagi g'oyalar – xalqning qalbidagi orzu umidlari, oshiq qalblarning dardu iztiroblari va hissiy kechinmalari bilan jilvalangan. Mavlaviy Jununiy “Ma'dan ul-hol” asarida aziz zotlar muhabbati va fayzi – insonni oliy maqomga etkazishni ta'kidlab aytadiki: “Valiylar muhabbati inson qalbini nur bilan to'ldirib, egasini yuksak maqomlarga ko'taradi” [3:483].

XULOSA

Shoir milliylik va umuminsoniylik odob-xloqi pirinsiplarini she'rlarida sharqona an'alarga mos ravishda bayon qilgan. Shahdiy adabiy muhiti

va Qo‘qon adabiy muhiti doirasida ijod qiladigan ko‘plab shoirlarning ilmiy adabiy merosi mavzu mundariyasi va uning badiiy g‘oyasi Islom dini ta‘limoti, tasavvuf g‘oyalari va tariqat ahli suluki bilan barpo bo‘lgani ma‘lum [6:112]. Darveshlik, qalandarlik, naqshbandiya, qodiriya va kubraviya tariqatlarining yo‘l-yo‘riqlari va ularning ma‘naviy qarashlari Shahdiy ijodiga qorishib ketganligi oddiy hol bo‘lgan.

Naqshbandiya tariqati Qo‘qon va O‘rateppa adabiy muhitiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Ko‘plab namoyandalar qodiriya, naqshbandiya va kubraviya tariqati qarashlarini targ‘ib etgan holda ijod qilgan. Shahdiy boshqa tariqat ahli bo‘lgan shoirlar qatori naqshbandiya tariqatini tavsif etib shu yo‘lga ergashgan. Natijada she‘rlarida badiiy va irfoniy qarashlari naqshbandiya g‘oyalari bilan hamohang bo‘lgan.

Shahdiy ijodi musulmon Sharq she‘riyatining ma‘lum va mashhur an‘analari asosida, jumladan, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Mavlono Lutfiy lirik merosi ta‘sirida rivojlanadi. U o‘zining ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabatini she‘rlarida jozibali tasvirlab bergan. Uning devonidan bir necha tur va janrlardagi she‘rlar o‘rin olgan. Diniy-didaktik, munojotnoma, holnoma, manoqibnoma, orifona, oshiqona, dilynoma, muhabbatnoma, rindona, zikrnoma, pandnoma va ijtimoiy mazmunli she‘rlar shoir adabiy merosining asosiy koloriti sanalgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Belinskiy V.G. Adabiy orzo‘lar (adabiy-tanqidiy maqolalar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1977. – B. 250.
2. Nodim Istaravshaniy. Devon. – O‘rateppa adabiy osorxonasi. №127 raqamli qo‘lyozma nusxasi – V. 290.
3. Mavlaviy Jununiy. Ma‘dan-ul-hol. – Dushanbe: Maorif. 2009. – S. 858.
4. Mirzo Kenjayebk. Buyuk Termiziylar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 512 b.
5. Komilov N. Ma‘nolar olamiga safar. – Toshkent: Tamaddun, 2012. – 316 b.
6. Sultonov S. Ta‘rixii doirai adabii Istaravshan dar nimai duvvumi asri XVIII va avvali asri XIX. – Dushanbe: Surushan. 2002. – S. 112.
7. Xoja Muhammad Porso. Risolai qudsiya (Tas‘hihi Ahmad Iroqiy). – Tehron: 1973. – 147 b.
8. Hoji Muhammad Shahdiy. Devon. – Shaxsiy kutubxonamizdagi qo‘lyozma nusxasi. – 152 v.
9. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018. – 624 б.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – 232 b.
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Naqshbandiya: vazifalar, zikrlar. – Toshkent: Hilol nashr, 2018. – 160 b.